

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshiboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

TEACHING THE UZBEKISTAN LANGUAGE ON THE BASIS OF A LINGUOCULTURAL APPROACH

Tursunova Javhar Bakir qizi

PhD student at the National Institute of Pedagogical Skills named after Abdulla Avloni

Abstract. Nowadays, in schools where education is conducted in Russian, paying special attention to teaching the Uzbek language in harmony with culture is an extremely important method for making lessons more engaging and for developing students' knowledge and skills. In this process, learners not only acquire theoretical knowledge but also gain opportunities to apply the language in practice and form imagination. Moreover, in such an educational environment, students develop not only their speech competence but also their logical thinking, analytical skills, the ability to compare, and intercultural communication skills. This is because the national and culturally specific words and concepts in the Uzbek language encourage learners to think conceptually. As a result, the learner begins to understand the true essence of the language and fills the gaps that may exist in the process of intercultural communication. Therefore, in this article, we have attempted to sufficiently demonstrate the importance of a linguocultural approach in language education.

Keywords: linguoculturology, language and culture, linguocultureme, cultural universal concepts, stereotypes, authentic texts, speech development, verbal and nonverbal expressions, language teaching.

O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH

Tursunova Javhar Bakir qizi

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarining yanada qiziqarli va o'quvchilardagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun til va madaniyatning o'zaro uyg'un tarzda o'tilishiga alohida e'tibor qaratilishi juda ham muhim usul hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchi nazariy bilimlarni egallash bilan birga amaliyotda ham tilni qo'llash, tasavvur hosil qilish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shuningdek, bunday ta'lim muhitida o'quvchining nafaqat nutqiy kompetensiyasi, balki uning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, qiyoslash qobiliyati va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari ortadi. Chunki o'zbek tilidagi mavjud milliy o'ziga xos so'zlar va tushunchalar o'quvchini konseptual fikrlashga undaydi. Natijada o'quvchi tilning asl mohiyatini tushunishni va madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonidagi o'zida mavjud bo'lgan bo'shliqlarni to'ldiradi. Shuning uchun ham til ta'limida lingvokulturologik yondashuvning muhim ekanligini ushbu maqolada yetarlicha isbotlashga harakat qildik.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, til va madaniyat, lingvokulturema, madaniy universal tushunchalar, stereotiplar, autentik matnlar, nutqiy rivojlanish, verbal va noverbal ifodalar, til ta'limi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N62>

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda ta'lim jarayonida milliy identitet, madaniy meros va tilning o'ziga xos qadriyatlarini asrab-avaylash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. O'zbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari mujassam bo'lgan beqiyos boylik sifatida ta'lim tizimida o'quvchilar ongiga chuqur singdirilishi zarur bo'lgan ma'naviy omildir. Shu nuqtai nazardan lingvokulturologik yondashuvning o'zbek tili ta'limidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etish, uning metodik asoslarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi.

Til va madaniyatning uzviy bog'liqligi lingvistika, pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlarning kesishgan nuqtasida yangi metodik yo'nalish – lingvokulturologik yondashuvning shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuv o'quvchilarni nafaqat tilning grammatik tuzilishi yoki nutqiy malakalari bilan tanishtirish, balki til birliklarida mujassam bo'lgan milliy tafakkur, qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy-madaniy tajribani anglashga yo'naltiriladi. O'zbek tili ta'limiga lingvokulturologik yondashuvni joriy etish o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish, milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, tilni yanada mazmunli va hayotiy kontekstda o'rganishga xizmat qiladi.

Til va madaniyat munosabatlarini o'rganishga qaratilgan lingvokulturologiya XX asr oxirlaridan boshlab tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllandi. Mazkur yo'nalishning nazariy asoslari rus tilshunosligida V. Gumbolt, A. Potebnya kabi klassik olimlarning "til – xalq ruhining ko'zgusi" haqidagi qarashlariga borib taqaladi. Keyingi davrlarda V.V. Vorobyev, V.A. Maslova, G.D. Tomaxin, Yu.A. Sorokin kabi olimlar lingvokulturologik yondashuvni tizimli ravishda rivojlantirib, til birliklarining madaniy qatlamini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy konsepsiyalar yaratdilar [3].

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya masalalari 2000-yillardan boshlab faol tadqiq qilina boshlandi. Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, A. Nurmonov, D. Xudoyberganova, M. Abdurahmonova kabi olimlarning asarlarida til va madaniyatning uzviy bog'liqligi, milliy-lisoniy dunyoqarash, konseptlar, madaniy semantika kabi masalalar nazariy jihatdan asoslab berildi. Xususan, N. Mahmudovning tilning milliy ruhni ifodalashiga qaratilgan tadqiqotlari o'zbek tilidagi konseptosferaning shakllanish mexanizmlarini ochib bergan bo'lsa, D. Xudoyberganovanning lingvomadaniyatga oid izlanishlari o'zbek xalqiga xos qadriyatlar, urf-odatlar, konseptual birliklarning lingvokulturologik tahlilini ko'rsatadi.

Ta'lim metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham lingvokulturologik yondashuvning o'zbek tili ta'limiga integratsiyalashuvi yoritilgan. Jumladan, G. Asilovanning o'zbek tili darslarida autentik materiallardan foydalanish bo'yicha ilmiy qarashlari, G. Rasulovanning o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga oid tadqiqotlari, A. Yo'ldoshevaning lingvokulturologik asosda o'qitish jarayonlarining psixologik omillariga bag'ishlangan ishlari sohada muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotlarda tilga madaniy yondashuvning o'quvchilar dunyoqarashi, nutqiy kompetensiyalari va madaniy ongini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

Xorijiy adabiyotlarda (E. Sapir, B. Uorf, G. Leech, A. Wierzbicka) tilning kognitiv va madaniy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan konsepsiyalar lingvokulturologik yondashuvning metodik asoslarini mustahkamladi. Ayniqsa, Sapir – Uorf gipotezasi til tafakkurni shakllantirishi haqidagi g'oya bilan lingvokulturologiya uchun nazariy poydevor yaratgan.

Umuman olganda, o'zbek va jahon tilshunosligi hamda ta'lim metodikasi bo'yicha mavjud adabiyotlar lingvokulturologik yondashuvning nazariy negizlari yetarli darajada ishlab chiqilganligini ko'rsatadi. Biroq o'zbek tili ta'limi jarayoniga mazkur yondashuvni tizimli tatbiq etish, dars jarayonida milliy-madaniy materiallarni tanlash va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur adabiyotlar sharhi ushbu yondashuvni o'zbek tili ta'limi jarayoniga metodik jihatdan tatbiq etish bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

O'qitish mazmuni va texnologiyasi nuqtai nazaridan o'zbek tilini lingvokulturologik yondashuv asosida o'rgatishda ayrim muhim jihatlar katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu yondashuvda lingvokulturema asosiy birlik sifatida olinadi - bu til (lingvistik ma'no) hamda madaniyat (til tashqarisidagi madaniy ma'no) elementlarini o'z ichiga olgan maxsus birlik bo'lib, unga mos belgilar bilan ifodalanadi. So'zdan farqli o'laroq, lingvokulturema nafaqat tilga oid tasavvur, balki unga chambarchas bog'langan "til tashqarisidagi madaniy muhit"ni - so'zning madaniy muhitini tashkil etuvchi mustahkam assotsiatsiyalar tarmog'ini ham o'z ichiga oladi. Bu esa madaniyat fenomenini aks ettiruvchi ifodaning mazmuniga chuqurroq kirishga imkon beradi [1].

Lingvokulturologik yondashuv tilni o'rgatishda madaniyatni o'quv materiali sifatida qamrab olgani uchun, material taqdimoti til birliklaridan emas, balki "madaniy birlik"dan (lingvokulturema) boshlanishi lozim. Bunday yondashuvda diqqat til birliklaridan olinadigan madaniy ma'lumotni alohida qayd qilishga emas, balki til orqali milliy madaniyatning yetarlicha aks etishiga qaratiladi.

Ushbu yondashuvga muvofiq o'qitish mazmuni ham o'zgaradi va unga qo'shimcha tarkibiy qismlar kiritiladi:

1. Bilimlar:

- madaniyat fenomenining mohiyati, madaniy universal tushunchalari va ularning turli madaniyatlardagi mazmuni;
- madaniyatning til va nutqda aks etish mexanizmlari;
- madaniyatlararo muloqotning psixologik xususiyatlari;
- stereotiplar
- iboralar, maqol, matal, afarizm, o'xshatish, metafora va autentik matnlar kommunikatsiya birligi sifatida qabul qilinadi va milliy madaniyatning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot beruvchi nutq birliklari sifatida ko'rib chiqiladi;

2. Madaniyatlararo ko'nikmalar:

— lingvokulturemalarning tanlanishi, o'rganilishi va tizimlashtirilishi bo'yicha ko'nikmalar, buning natijasida o'quvchilar ongida jamiyatdagi mavjud hodisaning to'liq tasviri shakllanadi va bu lingvokulturemalar hamda ular bilan bog'liq fon bilimlari madaniyatlararo muloqot jarayonida samarali qo'llaniladi;

— verbal va noverbal xatti-harakatlarining madaniy komponentini etnografik tarzda aniqlash mahorati;

— bir xil vaziyatni ikki tomonlama, ya'ni turli madaniyatlar nuqtai nazaridan ko'ra olish qobiliyati;

— o'z madaniyati bilan suhbatdosh madaniyati o'rtasida vositachilik qiluvchi sifatida harakat qilish mahorati;

— madaniy normalarga muvofiq nutq faoliyatini amalga oshirish, shuningdek, boshqa madaniyat vakilini o'z madaniyati, uning o'ziga xosligi va qadriyatlari bilan tanishtira olish qobiliyati.

3. Madaniyatlararo muloqotga munosabat yangi ma'lumotlarga ochiqlikni, boshqa madaniyatni qabul qilish, uning madaniy hodisalariga moslashish, va til egalariga nisbatan hurmat munosabatidir.

Lingvokulturologik yondashuv doirasida boshqa madaniyatni o'rgatishning eng muhim vositalaridan biri - madaniyatning ma'lum qatlamini aks ettiruvchi autentik matnlar tizimidir.

Bizning tadqiqotda turli milliy-madaniy o'ziga xoslikni aks ettirgan jonli muloqot shakllaridan parcha, gazeta materiallaridan, e'lonlar, va turli badiiy adabiyot namunalaridagi matnlardan parchalar olinadi. Ushbu matnlarda e'tiborga olinadigan eng asosiy jihatlar — dialogga asoslanganligi, milliy-madaniy belgilarning mavjudligi, o'quvchilar yoshiga mos va qiziqarli ekanligi, madaniyatshunoslik ma'lumotlarining noaniq, biroq kontekst natijasida aniqlash mumkinligi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerakligi kabilardir.

Yana bir muhim masala — madaniyatning ma'lum qatlamini aks ettiruvchi lingvokulturologik lug'atlar va autentik matnlarni ishlab chiqishdir.

Bunda quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. O'zbek tili ta'limida shu til muloqotida eng ko'p ishlatiladigan milliy-madaniy birliklarni tanlab olish va guruhlash. Bu birliklar A2 darajadagi o'quvchilar uchun mos bo'lishi.
2. Tanlangan madaniy birliklarga madaniy sharhlar ishlab chiqish.
3. Yig'ilgan materialni til sohiblari bo'lgan mutaxassislar tomonidan baholash.

Ushbu tajribadan amaliy foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, undan foydalangan o'qituvchi va o'quvchining ijtimoiy-madaniy bilimlari kengayadi. Natijada madaniyatlararo kommunikatsiya jarayoni yengillashadi, chunki o'z va boshqalar madaniyatini chuqur bilish o'quvchilarga ularni birlashtiruvchi umumiy jihatlarni aniqlash va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tushuntirish orqali madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida o'zaro tushunishni ta'minlashga yordam beradi.

Til ta'limida ta'limning madaniyatga oid muammolariga bo'lgan alohida e'tibor doimiy ravishda ortib bormoqda. Natijada, turli mamlakatlarda madaniyat va ta'lim o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalari kengroq ko'rib chiqilmoqda. Hozirgi zamon ta'lim nazariyasi va amaliyotida ta'limni tashkil etishda nafaqat yangi yondashuvlarni izlashga, balki uning madaniy xususiyatlari va mexanizmlarini bugungi madaniyat va ilm-fanga mos tarzda anglashga ham katta ahamiyat berilmoqda.

Butun jahonda til ta'limida til va madaniyatni birgalikda o'rganish zarurati doimiy ravishda amalga oshirilmoqda. Bu orqali o'quvchilarda tilni ona tili sifatida qabul qiluvchi mamlakat madaniyatini tushunish ko'nikmalari shakllantiriladi, stereotiplardan qutulish yo'lga qo'yiladi hamda madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxs tarbiyalanadi.

O'z tilidan boshqa bir tilni o'rganish nafaqat boshqa madaniyat bilan tanishtiradi, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham o'rgatadi va shu orqali o'quvchilarning "madaniyatlararo muloqot" kontekstida tarbiyalanishiga yordam beradi [2]. Shunday qilib, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganish ijtimoiy-madaniy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Shunga ko'ra, o'zbek tilini o'rganishda madaniyatshunoslik yondashuvi nafaqat umumta'lim va tarbiyaviy maqsadlarning rivojlanishiga, balki amaliy jihatlariga ham katta hissa qo'shadi.

Bizning umumta'lim maktabidagi pedagogik amaliyot paytidagi shaxsiy tadqiqotlarimiz hamda yuqorida ko'rsatilgan ilmiy adabiyotlar tahlili o'quvchilarning madaniyatshunoslik kompetensiyasi darajasi past ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun o'zbek tilini o'qitishda milliy-madaniy materiallardan foydalanish metodikasini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish zarurati mavjud va dolzarb masalalardandir.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda asosiy muammolar — ta'limning maqsadlari va mazmunini belgilashda deb hisoblab, bunda eng muhim tushuncha tilni emas, balki keng ma'noda madaniyatni o'rgatishdir.

Bunda milliy-madaniy materiallar bilan o'qitish tizimli birlikni o'z ichiga olishi lozim: maqsadlar, mazmun, usullar, ta'lim jarayoni, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faoliyat va o'zaro aloqalar; ta'lim nazorati, shuningdek, ijtimoiy talabga bog'liq bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhit va ta'lim muhiti.

Ta'lim jarayoni ikki asosiy komponentdan iborat — avvalo bilimlarni egallash, keyin esa ko'nikma va malakalarni rivojlantirish. Mantiqan, ta'lim jarayoni asosi bilimlarni egallash bo'lib, unda o'quv materiallari qabul qilinishi, tushunilishi, esda saqlanishi va o'zlashtirilishi jarayonlari mavjud bo'lib, bu o'quvchilarning lug'at boyligini to'ldiradi.

Milliy-madaniy materiallardan foydalanib dars o'tish doirasida o'zbek tilini o'rganishda ikkinchi komponent ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan bog'liq. Ushbu komponentga nutq ko'nikmalari kiradi, ya'ni gapirish, tinglash, o'qish va tushunish qobiliyatlari; lug'at, grammatika va talaffuz ko'nikmalari, ular nutq ko'nikmalarining tarkibiy elementlari hisoblanadi.

Fikrimizning yakuni sifatida ta'kidlash joizki, yuqoridagi ko'nikmalar til sezgisini rivojlantirishga yordam beradi, doimiy ravishda ikkinchi til bilan ishlashda motivatsiyani oshiradi. Masalan, jurnallar, gazeta, kino va internet orqali ma'lumot olish til o'rganish jarayonini kuchaytiradi va o'quvchilarning bilim olish faoliyati hamda tilga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish uchun Sh.B.Sodiqova quyidagi bir qator vazifalarni bajarish kerakligini ta'kidlagan [4]:

- kommunikativ-nutqiy, leksik-grammatik materialni ma'lum bir tizim asosida berish;
- imlo qoidalarini o'rgatish;
- og'zaki va yozma nutq ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish;
- lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- o'quvchilar so'z boyligi va nutqiy malakasini oshirish;
- o'zbek xalqining milliy-madaniy o'ziga xos jihatlariga oid bilimlarni kengaytirish;
- o'quvchilarni erkin fikrlashga, mustaqil mushohada qilishga undash;
- nutq madaniyati borasida asosiy zaruriy bilimlarni berish.

Ushbu vazifalar bajarilgan taqdirda, o'quvchini o'zbek tilida o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan va eng muhimi tilning o'ziga xos milliy-madaniy jihatlarini tushunishiga atroflicha hissa qo'shiladi. Bu esa Davlat ta'lim standartlarida belgilangan bir qator maqsadlarning erishilishiga hissa qo'shilishi aniq.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – 4-е изд. – М.: Русский язык, 1990
2. Красик В.И. О котигориях лингвокультурологии // Языковая Личность: проблемы коммуникотивной деятельности. -Волгоград.: 2001. – 76 с. 45
3. Mo'minova "About the role of linguokulturology in modern linguistics. <https://fledu.uz/2014>. №4 (4) 23-27 B. (Access date: 14.05.2018)
4. Содиқова Ш.Б. Ўзбек тилини хорижий тил сифатида ўқитиш масалалари. "XXI аср: фан ва таълим масалалари" илмий электрон журнали. – Тошкент, №2, 2017.
5. Xoliqov, Yunus Ortiqovich. "YANGI O'ZBEKISTONDA BAG'RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MILLATLARARO ALOQALARNING MOHIYATI". Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.Special Issue 23 (2022): 764-774.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).